



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»  
MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

**TOSHKENT - 2025**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



kinofilmdan parcha qo'yib berish ham maqsadga muvofiq. Bundan tashqari teskari sinfning yana ham mohiyatini olib beruvchi asosiy qismlaridan biri bo'lmish Quiz testlar, viktorina savol-javoblar orqali o'quvchilarning bilimlarini yana ham rivojlantirishingiz, mustahkamlab borishingiz mumkin. Bu jarayonda o'qituvchining ham ijodkorlik mahorati juda katta o'rinn egallaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Allamova Sh. Umumta'lismaktablarida aralash ta'lismetodikasini ishlab chiqish. Academic research in educational sciences volume 3 | issue 4 | 2022. –895 b.
2. Fozilova L. Raqamli texnologiyalarining ta'lismohasida qo'llanilishi // Ta'lismohasida rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. 04(10) 2024. – 101 b
3. Mirzahmedova N., Raqamli texnologiyalarining ta'lismohasida qo'llanilishi. – Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 2 | ISSUE 5/2 | ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor –1.7. – 540 b.
4. Sharopova Z. F., "TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" darslik. – Toshkent: Navro'z, 2019. – 217 b.
5. Xolmirov B. O'quv jarayonini teskari sinf (flipped classroom) texnologiyasi asosida takomillashtirish. Metodik qo'llanma – Toshkent: Yetakchi, 2024. – 117 b.

**DOI:** 10.52773/tsuull.conf.2025/QJYN4510

### **XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATSION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI**

#### **Abdixoliqova Mastona Raxim qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining*

*1-bosqich tayanch doktoranti (PhD)*

*norqulovamastona@gmail.com*

*ORCID ID: 0000-0003-1164-1244*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish va o'rgatish jarayonidagi zamonaviy, innovatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Interaktiv metodlar, texnologiyalardan foydalanish, individual yondashuv va psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati olib berilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalari yordamida nutqni rivojlantirishda pedagogning roli, dars samaradorligini oshirishdagi strategiyalar va o'quvchilarning faolligini ta'minlash yo'llari yoritilgan. Tadqiqot metodikasi amaliy misollar bilan boyitilgan. Ijodiy tafakkur – bu shaxsning mavjud bilim va tajribalari asosida yangi, noodatiy, samarali g'oyalarni ilgari surish qobiliyatidir. Topishmoqlar, maqollar va tez aytishlar orqali bolalarda obrazli fikrlash, nutq boyligi, mustaqil izlanish va mantiqiy xulosalarga kelish ko'nikmalari rivojlanadi. Topishmoqlar – obrazli tafakkur va taxmin qilish qobiliyatini, maqollar – axloqiy ong va hayotiy tajribani, tez aytishlar esa talaffuz, eslab qolish va diqqatni rivojlantiradi.

**Kalit so'zlar:** tez aytishlar, maqol, topishmoq, innovatsion metod, talaffuz, texnologiya, nutq madaniyati, individual yondashuv, psixologik muhit.

**Аннотация.** В статье анализируются современные, инновационные подходы к изучению и преподаванию устного народного творчества. Раскрывается важность интерактивных методов, использования технологий, индивидуального подхода и психологической поддержки. На примерах устного народного творчества освещается роль учителя в развитии речи, стратегии повышения эффективности урока и способы



обеспечения вовлеченности учащихся. Методология исследования обогащена практическими примерами. Творческое мышление – это способность человека выдвигать новые, необычные и эффективные идеи на основе имеющихся у него знаний и опыта. Загадки, пословицы и поговорки развивают у детей образное мышление, бегłość речи, способность к самостоятельным исследованиям и логическим выводам. Загадки развивают образное мышление и умение отгадывать, пословицы – нравственное сознание и жизненный опыт, а поговорки – произношение, запоминание и внимание.

**Ключевые слова:** пословица, поговорка, загадка, инновационный метод, произношение, технология, культура речи, индивидуальный подход, психологическая среда.

**Abstract.** This article explores the innovative and psycho-pedagogical foundations of teaching samples of folk oral creativity. The teaching and learning processes are examined through the lens of contemporary innovative approaches and interactive technologies. Special attention is paid to the integration of psychological support in fostering student engagement and enhancing lesson effectiveness. The study is enriched with practical examples that illustrate strategies for activating students' cognitive activity. Creative thinking is defined as the ability to generate original and effective ideas based on existing knowledge and experience. Riddles, proverbs, and tongue twisters play a crucial role in developing children's speech, independent thinking, and logical reasoning skills. Riddles encourage associative thinking and inference abilities; proverbs contribute to the development of speech culture and life experience; tongue twisters aid in improving pronunciation, memory, and attention span.

**Keywords:** tongue twisters, proverbs, riddles, innovation, methodology, pronunciation, technology, speech culture, individual approach, psychological environment.

Xalq og'zaki ijodi namunalari diqqatni jamlash, ijodiy tafakkurni o'stirish, adabiy-nutqiyligi kompetensiyani shakllantirish va so'zlash tezligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Bugungi ta'lif muhitida faqatgina an'anaviy metodlarga tayangan holda samarali natijalarga erishish qiyin. Shuning uchun o'qituvchilar ilg'or yondashuvlardan foydalanishi zarur. Mazkur maqolada aynan shunday yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bugungi kun o'quvchilariga psixologik yondashuv ham zarur. Globallashuv jarayonida har bir o'qituvchi psixopedagogik bilimlarga ega bo'lishi bugungi kun talabidir.

Respublikamizda o'qituvchilar faoliyatida darslarini innovatsion yoki psixopedagogik yondashuv asosida tashkil etilishi dolzabrligini saqlab qolmoqda. Bugungi kunning ilg'or va o'z kasbining yetuk mutaxassislarining darslaridagina yuqorida yondashuvlarni kuzatish mumkin. Lekin, har bir o'qituvchi ushbu yondashuvlar asosida dars tashkillashtirsa, dars samaradorligi va eng asosiysi o'quvchilarni ijodiy tafakkurini boyitgan bo'lardi. Biz hozir xalq o'gzaki ijodi namunalarini innovatsion va psixopedagogik yondashuv asosida o'qitish bo'yicha taklif va tavsiyalarimizni berib o'tamiz.

**Tez aytish** – xalq og'zaki ijodining bir turi. Tez aytishda yanglishib ketish mumkin bo'lgan qofiyadosh so'zlardan tuzilgan jumlalar qo'llanadi. Unda muayyan tovushlar, ayniqsa, jarangli undoshlar takrorlanadi va so'zlar ritm, urg'ular bilan tez aytildi. Tez aytishda har bir tovush o'z o'rnidagi to'g'ri, ravon talaffuz etilishi shart. Tovushlar talaffuzida yanglishgan tomon (kishi) yengilgan



hisoblanadi. O'tmishda katta yoshdagi odamlar ham o'tirishlarda, to'ylarda tez aytishda musobaqalashib, madaniy hordiq olganlar. Keyinchalik, asosan, bolalar repertuariga aylangan. Tez aytishlar bolalarning fikrlash qobiliyatini, so'z boyligini oshirishga va nutqining ravon bo'lishiga xizmat qiladi.

### "Tezkor xotira" texnologiyasi

Texnologiyani amalda qo'llashda o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Uchta guruhdagi o'quvchilarga alohida tez aytishlar beriladi.

1-guruh "Chaqqonlar"	O'roq o'xshar so'roqqa, So'roq o'xshar o'roqqa.
2-guruh "Ilg'orlar"	Dorivor daraxt do'lana, Mevasi dona-dona.
3-guruh "Tezkorlar"	Muzxonada muzlagan muzdekkina Muzqaymoq.

Har bir guruhdan eng ko'p tez aytish aytgan o'quvchi aniqlanadi va o'yinimizning ikkinchi bosqichida ishtirok etishadi. Ikkinchi bosqichda uchta o'quvchiga ham bir xil tez aytish matni beriladi. Masalan:

Oq choynakka ko'k qopqoq,  
Ko'k choynakka oq qopqoq.

G'olib chiqqan o'quvchi rag'batlantiriladi. Bu texnologiya orqali o'quvchilarning zehni, tafakkuri, tezkorligi, nutqining ravonligi sinovdan o'tkaziladi.

Tez aytishlar asosida ijodiy o'yinlarga misollar:

Tez aytishni to'g'ri va tez ayting (Takrorlash orqali ravon aytish).

Tez aytishni o'zing tuzing (Muayyan tovush asosida yangi tez aytish yaratish).

Kim ko'p eslab ayta oladi? (Eslab qolish asosidagi o'yin).

Harakatli tez aytish (Harakat bilan birgalikda aytish).

Topishmoqlar xalq og'zaki ijodi namunalarining juda qadimgi turlaridan biri hisoblanib, kishilarning aql-zakovati, tafakkuri, chuqur, keng va atroficha mulohaza yuritishi, kuzatuvchanlik, o'xshatish hamda taqqoslash kabi fikrlash jarayonlarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Bir parcha patir,

Olamga tatir. (*Oy*)

Onasi bitta,

Bolasi mingta. (*Oy va yulduzlar*)

Bir qop un, ichida ustun. (*Jiyda*)<sup>[1: 17]</sup>

Xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari, asosan, axloq-odob, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik va tarbiyaning turli yo'nalishlarini amalga oshirishga qaratilgan bo'lsa, topishmoqlar ko'proq yoshlarning aqliy kamolotiga ta'sir etishning vositasi bo'lib xizmat qilgan. Topishmoqlar muammoli ta'limga yaqin turadi. O'quvchining oldiga muammoli savol, vazifa, topshiriq qo'yadi, hatto ayrim topishmoqlar muammoli vaziyat yaratishi mumkin.



Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Ularning zaminida kishilarning qadimiy e'tiqod va tasavvurlari, olamni bilish va idrok etishga bo'lgan intilishlari yotadi.

Topishmoqlar adabiyot va san'at taraqqiyotiga samarali ta'sir etgan. Ular adabiyotimiz tarixida chiston, muammo, muvashshah kabi lirik janrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bugungi kunda topishmoqlar juda katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular bolalar va o'quvchilarimizning fikr doirasini kengaytirish, topqirligini oshirish, aqlini charxlash va muhokama qilish qobiliyatini shakllantirishning muhim vositasidir.

Hayot va undagi mavjudot haqidagi bilim-tushunchalarini, idrok va tasavvurni, fikr-mulohazalarni kengaytirish uchun zarur ta'lrim vositalaridan biri bo'lgani tufayli topishmoqlar soddadan murakkabga, osondan qiyingga, aniqdan noaniqqa, ma'lumdan noma'lumga borish usulida yaratiladi.

Topishmoqlar asosida ijodiy mashqlarga misollar:

Topishmoqni toping va izohlang (O'quvchilar topishmoqqa javob berish bilan birga, izoh ham beradilar).

Rasmdan topishmoq tuzing (Rasm asosida yangi topishmoq tuzish).

Topishmoqda yashiringan voqeani yozing (Topishmoq asosida hikoya tuzish).

Topishmoqni toping va izohlang (O'quvchilar topishmoqqa javob berish bilan birga, izoh ham beradilar).

Maqollarni insonlar ko'proq suhbat jarayonida, bir-birlari bilan gaplashganlarida ishlatadilar. Hammamizga yaxshi ma'lumki, maqol ibratl so'zdir. Maqollar nutqimiz bezagi, so'zga husn beradi, fikrni tushunishni osonlashtiradi, uning ta'sirchanligini oshiradi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim ko'p ishlatiladi. Kimki maqollarni ko'p ishlatsa, o'sha insonning so'zlari diqqat bilan tinglanadi. Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan maqollarni ma'no-mazmunini o'quvchilarga yetkazib berish asosiy vazifamizdir.

Maqollar bilan bog'liq topshiriqlar:

Maqolni davom ettiring (Maqol boshi aytildi, o'quvchi davom ettiradi).

Ma'nosini tushuntiring (Maqol mazmunini izohlash).

Maqoldan hikoya tuzing (Maqol asosida hikoya yozish).

Rasmga mos maqol toping (Rasmga mos maqol aytish va izohlash).

### "Davom ettiring" usuli

Ushbu usulda o'quvchilarga maqollarning faqatgina bir jumlesi aytildi, qolgan qismini o'quvchilar aytadi.

Oltovlon ola bo'lsa,

Og'zidagini oldirar.

...



El qo'risang, o'zarsan,  
...  
Olqish olgan omondir,  
...  
Do'sting ming bo'lsa ham oz,  
...

Bu usul orqali sinfdagi barcha o'quvchilarni xalq maqollarini yod olishlariga va so'z boyligini oshirishiga erishamiz.

Endilikda o'quvchilar maqol, topishmoq va tez aytishni farqlay oladimi yoki yo'qmi, sinovdan o'tkazib olamiz.

#### "Qo'shtirnoq" metodi

Ushbu metoddada o'quvchilarga maqol, topishmoq, tez aytishlar aralash holatda berilgan tarqatmalar tarqatiladi. O'quvchilar uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruh topishmoqlarni, ikkinchi guruh maqollarni, uchinchi guruh tez aytishlarni aniqlab, qo'shtirnoqqa olib berishlari kerak.

Boshi taroq, dumi o'roq, Har gulning o'z isi bor, har elning o'z tusi bor.

Buloqning suvi tiniq, dononing – suhbat, Bir qop un, ichida ustun, Shahari bor, odami yo'q, daryosi bor, suvi yo'q, Dorivor daraxt do'lana, mevasi dona-dona, O'roq o'xshar so'roqqa, so'roq o'xshar o'roqqa...

Yuqoridagi metod orqali o'tilganlarni mustahkamlab olishimiz mumkin. Topishmoq, maqol va tez aytishlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, nutqi, til boyligi va mustaqil izlanish qobiliyatni rivojlanadi.

O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun rolli o'yinlar, guruhlarda tez aytish musobaqasi, marafon kabi faoliyatlar qo'llanadi. Bu orqali o'quvchilar bir-birining nutqini tinglaydi, xatolarni birgalikda aniqlaydi va tuzatadi. Bunday o'yinlar ijtimoiy o'zaro ta'sirni kuchaytiradi. Mobil ilovalar, audio yozuvlar, video darsliklar va QR-kodli kartochkalar tez aytish, maqol va topishmoqlarni o'rganishni interaktivlashtiradi. Ijobiy emotsiyonal muhitda o'quvchilar o'zlarini erkin his qiladi, xatolardan qo'rqlaydi va tezroq o'zlashtiradi. O'qituvchining ijobiy munosabati darsning samadorligida va o'quvchi rivojida muhim omil hisoblanadi. Shunday ekan, o'quvchilar bilan ishslashda psixologik bilimlarni ham o'z o'rnida ishlatish ahamiyatli. Interaktivlik, texnologik vositalar, individual yondashuv va psixologik qo'llab-quvvatlash – bu yo'nalishda muvaffaqiyat kalitidir. Bu yondashuvlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va natijadorlikni ta'minlaydi. Kelgusida metodik qo'llanmalar, mobil ilovalar yaratish, tajriba darslarini tashkil etish orqali bu sohaga qo'shimcha hissa qo'shish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. 5-sinf. Adabiyot. -T.: Sharq, 2020. - 272 b.
2. Djamaldinova Sh. Maktab adabiy ta'limida xalq og'zaki ijodi namunalarini muammoli metod asosida o'rganish//PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferat. – Toshkent, 2022.



3. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lif. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 352 b.
4. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – 352 b.
5. Muhammedova S. X., Abdullayeva M. D., Yuldasheva Sh. Sh., Eshmatova Y. B. O'zbek tili va adabiyoti ta'lifimda zamonaviy axborot texnologiyalari. – Toshkent: Excellent Polygraphy, 2018. – 264 b.
6. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. – Continuum. New York, 2011.
7. Niyozmetova R. Uzluksiz ta'lif tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 216 b.
8. Rajabova I. Adabiyot darslarini interfaol usullarda tashkil etish. – Toshkent: Tamaddun, 2010. – 172 b.
9. Seligman, M. E. P. (2002). Positive Psychology, Positive Prevention, and Positive Therapy. In Handbook of Positive Psychology. Oxford University Press.
10. Slavin, R. E. (2009). Educational Psychology: Theory and Practice. Pearson.
11. To'xliyev B., Niyozmetova R. va b. Til va adabiyot ta'liming zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent, 2011. – 191 b.
12. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: "Alisher Navoiy" nomidagi O'zMK, 2012. – 308 b.

## O'QITUVCHINING "SEHRLI TAYOQCHASI": FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR TAHLILI

**Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs magistri*  
alimjonovailmira@gmail.com

**Annotasiya.** Ushbu maqolada metodikaning zamonaviy ta'limdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. O'quvchilarining faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar tahlil qilinadi. Olimlarning bu boradagi tadqiqotlariga tayanilgan holda, ayniqsa adabiyot darslarida qo'llanilayotgan, amaliy natija berayotgan yondashuvlar — "alifbo metodi" va "mozayka metodi" kabi usullar chuqur tahlil etiladi. Bu metodlar o'quvchilarda mustaqil fikrplash, ijodiy yondashuv va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** metodika, pedagogika, mustaqil fikr, samaradorlik, yangicha yondashuv, alifbo metodi, mozaika metodi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение методики преподавания в современном образовательном процессе. Основное внимание уделяется эффективным методам, способствующим повышению активности учащихся. На основе научных исследований анализируются практические методики, особенно применяемые на уроках литературы, такие как «метод алфавита» и «метод мозаики». Эти подходы способствуют развитию самостоятельного мышления, креативности и коммуникативных навыков у школьников.

**Ключевые слова:** методика, педагогика, самостоятельное мышление, эффективность, инновационные подходы, метод алфавита, метод мозаики.

**Abstrakt.** This article discusses the importance of teaching methodology in the context of modern education. It focuses on effective strategies aimed at increasing student engagement and participation. Drawing on academic research, the article analyzes practical



<b>NUTQINI BAHOLASH PEDAGOGIK-METODIK MUAMMO SIFATIDA</b>	
<i>Ermatova Durdona Zafarjon qizi. INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPARATIVE PEDAGOGICAL ANALYSIS</i>	797
<i>Raxmatullayeva Ruxshona Sherzod Qizi. O'ZBEK MILLIY TAOMLARI NOMLARINING SHEVALARDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI</i>	800
<i>Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI</i>	803
<b>VII SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR</b>	
<i>P.Huёзметова. БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ</i>	809
<i>P.Huёзметова. O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJUY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	813
<i>Исманова Акибатхан Алимжановна. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ "ЎТКАН КУНЛАР" ВА ТЎЛАГАН ҚОСИМБЭКОВНИНГ "СИНГАН ҚИЛИЧ" АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР ДАВРИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ</i>	820
<i>Turakulova Okila Amirkulovna. TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI</i>	825
<i>To'ychiyeva Mahfuza Umakulovna. TA'LIM TIZIMIDA MANTIQIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN</i>	830
<i>Oymatova Nilufar Mirjamolovna. JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI</i>	839
<i>Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna. ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI</i>	844
<i>Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi. MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAN FOYDALANISH</i>	852
<i>Abdixoliqova Mastona Raxim qizi. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATSION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI</i>	857
<i>Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna. O'QITUVCHINING "SEHRLI TAYOQCHASI": FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR T AHLILI</i>	862
<i>Abdusattorova Dilshodabegim. ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI</i>	865
<i>Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna. ADABIY TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	870
<i>Beknazarova Farida Matraxim qizi. 5-6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	875

